

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**"KELISHILGAN"**  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lif vazirligi:

“\_\_\_” 2021 yil



2021 yil

**5A140501- KIMYO (FAN YO'NALISHI BO'YICHA)**

**MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA  
KIRISH SINOVLARI UCHUN  
MAXSUS FANLARDAN**

**DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

**Samarqand - 2021**

Dastur Oliy Ta’limning “Noorganik kimyo”, “Analitik kimyo”, “Organik kimyo” va “Fizikaviy kimyo” fanlari majmuasini o’zida aks ettirgan. Mazkur dastur 5A140501-“Kimyo (fan yo’nalishlari bo’yicha)” mutaxassisligi bo’yicha maxsus fanlardan magistraturaga kirish sinovlarini topshiruvchilarga mo’ljallangan.

### **Tuzuvchilar:**

SamDU “Noorganik kimyo va materialshunoslik” kafedrasini professori A. Nasimov

SamDU “Analitik kimyo” kafedrasini mudiri, professor E. Abduraxmanov

SamDU “Fizikaviy va kolloid kimyo” kafedrasini mudiri, professor N. Muhammadiyev

SamDU “Organik sintez va bioorganik kimyo” kafedrasini mudiri S. Tillayev

### **Taqrizchilar:**

SamDU “Analitik kimyo” kafedrasini dosenti E. Ro’ziev

SamDU “Fizikaviy va kolloid kimyo” kafedrasini professori H. Trobov

SamDU “Noorganik kimyo va materialshunoslik” kafedrasini dosenti X. Tashpo’latov

SamDU “Organik sintez va bioorganik kimyo” kafedrasini dosenti Q. Zohidov

Dastur “Analitik kimyo, “Organik sintez va bioorganik kimyo”, “Noorganik kimyo va materialshunoslik” hamda “Fizikaviy va kolloid kimyo” kafedralarining 2021 yil 26 iyun 11-sonli qo’shma majlisida, Universitet kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-son yig‘ilishida muhokama etilgan va tavsiya etilgan.

## KIRISH

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta’limning tabiiy yo’nalishi bo’limida ko’rsatib o’tilgan, talabalarning tabiat haqidagi dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrlash tuyg’ularini qaror toptirish olingan nazariy va amaliy bilimlarni hayotga tadbiq etishni amalga oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Kimyo fani atrofimizdagi olamni, tabiatni o’rganuvchi fanlarning biridir. Butun olam, butun borliq materiyadan iborat. Uni ma’lum qonunlar asosida o’rganish va undan insoniyat manfaati uchun foydalanish fanning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi davrda atrof muhitni muhofaza qilish insoniyat oldida turgan muhim masalalardan biri bo’lib qoldi. Suv va havoning tozaligini nazorat qilish, chiqindisiz texnologiya yaratish va hokazo masalalarni hal qilishda kimyo fanning ahamiyati katta.

5A140501- Kimyo (fan yo’nalishi bo’yicha) mutaxassisligi bo’yicha tayyorlanayotgan magistrler noorganik kimyonи umumi kursini, zamonaviy yangi texnika va texnologiyada qo’llaniladigan birikmalarini (materiallar) olinishi va ularni fizik-kimyoviy xossalarga bag’ishlangan ayrim boblarnini (koordinasion birikmalar, klaster va o’ta-o’tkazuvchi moddalar) chuqurroq bilishlari kerak. Bundan tashqari, ayniqsa hozirgi kunda kimyoviy ishlab chiqarish sanoatdagи jarayonlar atrof-muhitga (ekologik) ko’rsatayotgan ta’sirni bilishlari o’ta dolzarb masalalarda biridir. Koordinasion birikmalar juda ko’p sohalarda (analitik kimyo, gidrometallurgiya, kataliz, biologiya, tibbiyat va boshqa sohalarda) qo’llaniladi. Klaster va o’ta-o’tkazuvchi moddalar ham yangi texnika va texnologiyada qo’llaniladi. Fan va texnikaning taraqqiyoti sanoatning rivojlanishi bilan bir qatorda ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo’lmoqda. Bu muammolarni oldini olishda kimyoviy analizning ahamiyati beqiyosdir. Bu birinchi navbatda “Analitik kimyo” fanining rivojlanishi bilan uzviy bog’liqidir. Shuning uchun “Analitik kimyo” ning nazariy va amaliy qonuniyatlarini chuqur egallashni yo’lga qo’yish muhim ahamiyatga ega.

“Analitik kimyo” fanining rivojlanishi boshqa fanlarning rivojlanishiga nisbatan bir necha marotaba jadalroq bo’lishi kerak.

Bunday kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim muassaslarida o’qitiladigan organik kimyo fanining ahamiyati nihoyatda kattadir. Organik kimyonи o’qitish talabalarni faqat qator reaksiyalar bilan tanishtirishdan iborat bo’lmasdan balki, ularni mantiqiy fikrlashga va uni amaliyatda tadbiq etishni bilishga o’rgatishdan iboratdir.

«Fizikaviy kimyo» fani zamonaviy kimyoning nazariy asosini tashkil etadi. Ushbu fan materianing “kimyoviy” harakat masalalarini talqin qilish, kimyoviy termodinamika va kimyoviy kinetika yordamida kimyo fani uchun katta ahamiyatga ega bo’lgan “reaksiyaga kirish qobiliyati” degan tushunchani talqin qilish, fizikaviy kimyo qonunlarini jonli tabiatning yangidan-yangi mohiyatlarini ochib berishda tadbiq etish masalalarini qamraydi.

sohalarda qo’llashni o’rgatishdan iborat.

—Fizikaviy kimyo qonunlarining ma’nosini yoritib berish, shu qonunlarning qo’llanish sohalarini o’rgatish va aniq kimyoviy masalalarini xal qilishda ushbu qonunlarning amaliy imkoniyatlarini to’g’ri tushuntirish. Shu sababli, kimyoda fan asoslarini o’rganishda, bu fanning barcha bo’limlari o’rtasidagi mayjud bog’liqlikni yortish kabi tushunchalardan bilim ko’nikma va malaka shakllantirishdir.

### Dasturning mazmuni

“Kimyo” mutaxassisligi bo’yicha magistraturaga kirish hoxishi bo’lgan talabgorlardan bakalavriatura bosqichida o’qitilgan maxsus fanlar dasturlariga kiritilgan mavzular bo’yicha quyidagi tushunchalarga ega bo’lishi va savollarga javob bera olish talab qilinadi.

## **I. NOORGANIK KIMYO**

### **D.I. Mendeleyevning davriy qonuni**

Davriy qonun. Davriy sistema. s-, p-, d-, f-elementlar va ularning davriy sistemadagi o'rni. Guruhlar. Davrlar. Asosiy va yonaki guruhchalar, atom xossalarining davriyligi. Orbital va effektiv radiuslar. Atom va ion radiuslar, ionlanish potensiallari qiymatlari, elektronga moyillik va elektromanfiylik energiyalarining davr va guruhchalar bo'yicha o'zgarishi; d- va f-siqilishlari. Kaynosimmetrik elementlar. Elementlar, oddiy moddalar va murakkab birikmalarning kimyoviy xossalaridagi davriylik. Metallar va metallmaslar kimyoviy faoliyatining davr va guruhlarda o'zgarish qonuniyati. Klassik, ichki va ikkilamchi davriylik.

#### **Atom tuzilishi**

Atom tuzilishi haqidagi ta'limalarning rivojlanish tarixi. Bor nazariyasi. Atom tuzilishining to'lqin nazariyasi. Elektronning ikki xil tabiatga ega ekanligi. Noaniqlik prinsipi. Elektron buluti haqidagi tushuncha. Elektron bulutining zichligi. Vodorod atomining asosiy va qo'zg'algan holatida yadro atrofida elektron buluti zichligining radial taqsimlanishi. Atom radiusi haqidagi tushuncha. Atomdagи elektron holatlarini tavsiflovchi kvant sonlar. s-, p-, d-, f-elektronlar. Energetik holat. Elektron qobiqcha, atom orbital (AO). Pauli prinsipi va elektron qobiqlarning sig'imi. Xund qoidasi va atom orbitallarning to'lib borish tartibi. Elementlar atomlarining elektron qobiqchalarining tuzilishi.

#### **Kimyoviy bog'lanish nazariyasi**

Valentlik va kimyoviy bog'lanish tushunchalarining rivojlanishi. Kimyoviy bog'ning hosil bo'lismehanizmlari. Kimyoviy bog'ning asosiy turlari; kovalent (qutbsiz va qutbli), ion, metall bog'lar. Kovalent va ion bog'lar hosil bo'lismehanizmining asosiy holatlari. Donor-akseptor mehanizmi bo'yicha bog' hosil bo'lishi. Valent bog' (VB) nazariyasining asosiy holatlari. Donor-akseptor mehanizmi bo'yicha bog' hosil bo'lishi. Valent bog'lar nazariyasi asosida valentlik. Kovalent bog'ning hosil bo'lismehanizmini kvant mehanik asosida tushuntirish. Kimyoviy bog'ning miqdoriy tavsiflari. Bog'ning energiyasi. Bog' uzunligi. Valent burchagi. Bog'ning ionlik darajasi, dipol momenti. Doimiy va o'zgaruvchan valentlik. Birikmalardagi elementlar atomlarining valentligi va oksidlanish darajasi. Atom orbitallarning gibridlanish konsepsiysi va molekulalar hamda ionlarning fazoviy tuzilishi. Sodda gibridlanish turlari: sp-, sp<sup>2</sup>-, sp<sup>3</sup>-, sp<sup>2</sup>d-, sp<sup>3</sup>d-, sp<sup>3</sup>d<sup>2</sup>. Takomillashgan elektron juftlar ishtirokidagi gibridlanish. AX, AX<sub>2</sub>, AX<sub>3</sub>, AX<sub>4</sub>, AX<sub>5</sub>, AX<sub>6</sub> turdagи molekulalar va ionlarning fazoviy konfigurasiyalari. Molekulyar orbitallar (MO) nazariyasi. MO nazariyasining asosiy holatlari. Energetik diagramma. Bog'lovchi va bo'shashtiruvchi MO.  $\sigma$ - va  $\pi$ - MO.

#### **Eritmalar**

Dispers sistemalar. Suyuq, qattiq va gaz holidagi eritmalar. Chin eritmalar. Erishning fizik-kimyoviy jarayon ekanligi. Moddalarning erishda entalpiyaning va entropiyaning o'zgarishi. Solvatlanish. Solvatlar Binar sistemalarning bug' bosimlari

Elektrolitik dissosilanish. Modda tabiatining suvli eritmada elektrolitik dissosilanishiga ta'siri. Dissosilanish mehanizmi. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar. Elektrolitlarning dissosilanish darajasi. Dissosilanish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar. Kuchsiz elektrolitlar eritmalaridagi muvozanat. Dissosilanish konstantasi Tuzlarning gidrolizi. Tuzlarning kation va anion bo'yicha gidrolizlanishi. Gidrolizlanish mehanizmi. Gidroliz darajasi. Gidroliz konstantasi.

#### **Oksidlanish-qaytarilish jarayonlari**

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining turlari. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining tenglamalari uchun koeffisiyentlarni tanlash. Koeffisiyentlar tanlashning ikki usuli: elektron-balans usuli, ion-elektron usuli.

#### **p-Elementlarning umumiy tavsifi.**

#### **Yettinchi guruhning p-elementlari**

r-Elementlarning davriy sistemadagi o'rni. Atomlarining tuzilishi. Davrda va guruhlarda atomlar radiusi, ionlanish potensiallari, elektronga moyilligi va elektromanfiylikning o'zgarishi. Guruh va davrlarda elementlarning metallik va metallmaslik xossalarining o'zgarishi.

### **Oltinchi guruhning p-elementlari**

Elementlarning umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Guruh bo'yicha atom radiuslari, ionlanish potensiallari, elementlarning elektronga moyilligi, ularda elektromanfiylikning o'zgarishi. Valentligi va oksidlanish darajalari. Oddiy moddalarning kimyoviy xossalari. Oksidlanish-qaytarilish xossalari.  $N_2E$  turidagi gidridlar. Ularning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Oltinchi guruh r-elementlarining kislородли birikmalar. Oksidlari. Tuzilishining o'ziga xosligi. Oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari. Olinish usullari. Sulfit, selenit va tellurit kislotalar. Sulfit-tellurit kislotalar qatorida oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalarining o'zgarishi.

### **Beshinchi guruhning p-elementlari**

Elementlarning umumiy xossalari. Atomlarining tuzilishi. Guruhda atom radiuslari, ionlanish potensiali, elektronga moyilligi va elektromanfiyligining o'zgarishi. Atomlarning valentligi va oksidlanish darajalari. Atomlarining yuqori oksidlanish darajasidagi birikmalar barqarorligining o'zgarishi. Birikmalardagi kimyoviy bog'lanish tabiat. Azot. Vodorodli birikmalar. Ammiak molekulasingning tuzilishi, reaksiyon qobiliyat, qaytaruvchilik xossasi. Gidrazin. Molekulasingning tuzilishi. Birikish, oksidlovchilik-qaytaruvchilik reaksiyalari. Azid kislotsasi. Xossalari. Azot (I, II, III, IV, V) oksidlari. Molekulalarining tuzilishi. Oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari. Nitrit kislotsasi. Oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari. Nitrat kislotsasi. Molekulasi va nitrat ionining tuzilishi. Konsentrangan va suyultirilgan nitrat kislotsasining oksidlovchilik xossalari. Metall va metallmaslar bilan reaksiyasi. Kislotaning laboratoriya va sanoatda olinish usullari. Zar suvi.

### **To'rtinchi guruhning p-elementlari**

Elementlarni umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Guruhda elementlar atom radiuslari, ionlanish potensiallari va elektromanfiyliklarining o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajasidagi birikmalar turg'unligining guruhda o'zgarishi. Oddiy moddalar. Ularning kislород, metallar, suv, kislota va ishqorlarga munosabati.  $EN_4$  turidagi gidridlar. Uglerod (II)-oksid. Molekuladagi kimyoviy bog'ning VB va MO nazariyasi asosidagi talqini. Olinishi, qaytaruvchilik xossalari. Birikish reaksiyalari. Uglerod (IV)-oksid. Molekulasingning tuzilishi. Suv va ishqorlarga munosabati. Olinishi, qo'llanishi. Karbonat kislota va uning tuzlari. Karbonat kislota molekulasi va karbonat ionining tuzilishi. Karbonat kislotsasining xossalari. Silikat kislotalar. Ortosilikat kislota. Polisilikat kislotalar. Ularning tuzilishidagi o'ziga xoslik. Germaniy, qalay, qo'rg'oshin (II, IV) oksidlari. Ularning nisbiy barqarorligi. Kislota-asoslik, oksidlovchi-qaytaruvchilik xossalari. Ularning suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Elementlarning (II, IV) hidroksidlarini kation va anion shaklidagi birikmalar. Nisbiy barqarorligi, hidrolizlanishi.

### **Metallarning umumiy sharhi**

Metallarning umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishidagi o'ziga xoslik. Metallarning kristall strukturasi. Metall bog' va uning o'ziga xosligi. Zonalar nazariyasi asosida metall bog'. o'tkazgichlar, yarim o'tkazgichlar va dielektriklar. Metallarning umumiy olinish usullari. Pirometallurgiya. Gidrometallurgiya. Elektrometallurgiya. Metallar korroziyasi. Kimyoviy va elektrokimyoviy korroziya. Korroziya mexanizmi. Korroziya tezligini belgilovchi omillar. Metallarni korroziyadan himoya qilish usullari. Elektrokimyoviy himoya usullari. Oksidlanish-qaytarilish sistemalari. Elektrod potensiallar. Nernst tenglamasi. Metallarning elektrokimyoviy kuchlanishlar qatori.

### **Birinchi va ikkinchi guruhlarning s-elementlari**

Vodorod – davriy sistemaning birinchi elementi. Vodorod atomi tuzilishining o'ziga xosligi. Molekulyar va atomar holati. Fizikaviy va kimyoviy xossalari. Suv – vodorodning eng muhim birikmasi. Suv molekulasingning tuzilishi. Fizikaviy va kimyoviy xossalari.

Ishqoriy metallar. Atomlarining tuzilishidagi o'ziga xoslik. Atomlarning valentligi va

oksidlanish darajalari. Ionlanish potensiallari.

Birinchi guruh **s**-elementlarining umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Birikmalarda kimyoviy bog'larning tabiat. Metallarning kimyoviy aktivligi. Ularning litiy-seziy qatoridagi o'zgarishi. Ishqoriy metallarning metallmaslarga, suv, kislotalarga munosabati. Gidroksidlari. Xossalari.

Ikkinchi guruh **s**-elementlarning umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Guruhda atom radiuslarining va ionlanish potensiallarining o'zgarishi. Berilliyning ishqorlarga munosabati. Gidroksidlari. Ularning strukturasi, kislota-asoslik xossalari. Beriliy gidroksidining amfoterligi.

Magniy. Davriy sistemadagi o'rni, tabiatda tarqalishi, izotoplari. Fizikaviy va kimyoviy xossalari. Oksid va gidroksidlari, xossalari.

Ishqoriy-yer metallari. Kalsiy, stronsiy, bariy atomlarining tuzilishi, izotop tarkibi, tabiatda tarqalishi. Fizikaviy va kimyoviy xossalari. Oksid va gidroksidlari, xossalari.

Suvning qattiqligi. Vaqtinchalik va doimiy qattiqlik.

### **Uchinchi guruhning p-elementlari**

Elementlarning umumiy tavsifi. Atom tuzilishi. Atom radiuslari va ionlanish potensiallarining guruhda o'zgarishi. Borning kimyoviy xossalari. Kislorod, suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Bor oksidi. Tuzilishining o'ziga xosligi. Xossalari. Suv va ishqorlarga munosabati. Orto-, meta va poliboratlar. Alyuminiy-tallyq qatoridagi metallarning fizik-kimyoviy xossalari. Metallarning kimyoviy aktivligi. Kislorod, suv, kislota va ishqorlarga munosabati. E(ON)<sub>3</sub>lar. Alyuminiy gidroksidi. Tarkibi va tuzilishidagi o'ziga xoslik.

### **Kompleks birikmalar**

Vernering koordinasion nazariyasi. Koordinasion nazariyaning asosiy holatlari: markaziy atom va addendlar (ligandlar), tashqi va ichki sfera, koordinasion son. Kompleks yadrovi va uning asosiy va qo'shimcha valentliklari.

Kompleks birikmalarda kimyoviy bog'ning tabiat, markaziy ionning ligandlar bilan elektrostatik va kovalent ta'sirlashishi. Kompleks birikmalarning tuzilishini valent bog'lanishlar nuqtai nazaridan tushuntirish. Past spinli va yuqori spinli komplekslar. Spektrokimyoviy qator.

Kristall maydon nazariyasi haqida tushuncha. Markaziy ionning orbitallarini oktaedrik, tetraedrik va kvadrat komplekslarda parchalanishi. Yan-Teller effekti haqida tushuncha. Parchalanish qiymatining kompleks birikmalarning rangi bilan bog'liqligi.

Ligandlar maydoni nazariyasi haqida tushuncha. Barqarorlik konstantasi - kompleks birikmalarning muhim tavsifi. Barqororlik konstantasini markaziy ionning zaryadi va radiusi qiymatlariga bog'liqligi. Chernyayevning trans ta'sir effekti.

### **Radiokimyo**

Tabiiy radioaktiv elementlar. Radioaktivlik hodisasining ochilishi. Radioaktivlik turlari. Yarim yemirilish davri. Radioaktiv parchalanish konstantasi. Radioaktiv o'zgarishlarning asosiy qonunlari. Siljish qoidasi.

### **d-Elementlarning umumiy tavsifi**

#### **Uchinchi guruhning d-elementlari**

Atomlarining tuzilishi. Guruhlarda d-elementlar xossalaring p-elementlarga nisbatan o'zgarishidagi o'ziga xoslik. V va VI davrlar d-elementlarning kimyoviy xossalardagi o'ziga xoslik. d-elementlar atomlarining har xil oksidlanish darajasidagi oksid va gidroksidlarining kislota-asos xossalari.

**f-elementlar.** Elementlarning umumiy tavsifi. Davriy sistemadagi o'rni. Atomlarining tuzilishi. 4f- va 5f- elementlari. Xossalardagi ichki davriyligi. Birikmalaridagi kimyoviy bog'lanish tabiat. Lantanoидlar (4f-elementlar). Metallarning kimyoviy xossalari. Suv, kislotor va kislotalarga munosabati.

### **To'rtinchi va beshinchi guruhning d-elementlari**

IV guruhning d-elementlari Oddiy moddalarning fizik-kimyoviy xossalari. Odatdag'i va

yuqori temperaturalardagi kimyoviy aktivligi. Kislorodga, suvga, kislotalarga va ishqorlarga munosabati.

V guruhning d-elementlari Elementlarning umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Guruhda atom radiuslarining va ionlanish potensiallarining o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajasi. Birikmalardagi kimyoviy bog'larning tabiat. Oddiy moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Kislorod, suv, kislota va ishqorlarga munosabati.

### **Oltinchi va yettinchi guruhning d-elementlari**

VI guruhning d-elementlari Yuqori oksidlanish darajalaridagi birikmalari, barqarorligining guruhda o'zgarishi. Atomlarning har xil oksidlanish darajalaridagi birikmalarining oksidlanish-qaytarilish xossalari. Kislorod, suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Xrom (II, III, VI) oksidlari. Ularning nisbiy barqarorligi. Suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Volfram (IV) va molibden (IV) oksidlari. Suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Xrom-volfram (VI) oksidlari qatorida oksidlovchilik, kislota xossalari va barqarorligining o'zgarishi. Xrom (II, III, VI) gidroksidlari. Kislota-asos va oksidlovchi-qaytaruvchilik xossalari.

VII guruhning **d-elementlari** Elementlarning umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Elementlarning atom radiuslari va ionlanish potensiallarining o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajasi. Oddiy moddalarning fizik va kimyoviy xossalari, kimyoviy aktivligi; kislород, suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Marganes (II, III, IV, VII) oksidlari. Barqarorligi, kislota-asos va oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari. Suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Marganes (II, III, IV, VII) gidroksidlari.

### **Sakkizinchchi guruhning d-elementlari**

Elementlarning umumiy tavsifi. Temir-nikel va temir-osmiy qatorlarida atomlarning radiusi va ionlanish potensiallarining o'zgarishi. Temir, kobalt va nikelning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Kislorod, suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Xossalari. Suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Temir, kobalt va nikel (II, III) gidroksidlari. Ikki va uch valentli gidroksidlarning kislota-asos va oksidlovchi-qaytaruvchilik xossalari. Suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Temir, kobalt va nikelning kompleks birikmalari. Platina gruppachasi elementlari. Platina metallarining fizikaviy va kimyoviy xossalari. Kislorod, vodorod, suv, kislota-ishqorlar va zar suviga munosabati.

## **Birinchi va ikkinchi guruhning d-elementlari. Gelyi va sakkizinchchi guruhning r-elementlari**

Birinchi guruhning d-elementlari. Oddiy moddalarning kimyoviy xossalari. Kislorod, suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Oltinching zar suvida erishi. Mis (I, II), kumush (I, II) oksidlari, xossalari. Kislota, ishqor va suvga munosabati.

Ikkinchchi guruhning d-elementlari. Elementlarning umumiy tavsifi. Guruhda atom radiuslarining va ionlanish potensiallarining o'zgarishi. Oddiy moddalarning kimyoviy xossalari. Kislorod, suv, kislota va ishqorlarga munosabati.

Gelyi va sakkizinchchi guruhning r-elementlari. Elementlarning umumiy tavsifi. Atomlarining tuzilishi, valentlik va oksidlanish darajasini namoyon qilish imkoniyatlari. Guruh bo'yicha atom radiusi va ionlanish potensialining o'zgarishi. Kimyoviy inertlik sabablari.

## **II. ANALITIK KIMYO**

### **Kimyoviy analizning metrologik asoslari**

Asosiy metrologik tushunchalar va tavsiflar: o'lchash, o'lchash usullari va asboblari. O'lchash natijalariniing haqiqiyligini ta'minlaydigan asosiy prinsiplar va uslublar. Kimyoda matematik ifodalar, metrologik tushunchalar va tavsiflar. Analizdagi xatoliklar klassifikasiysi: sistematik, tasodifyi, qo'pol, absolyut va nisbiy xatoliklar. O'lchash natijalarini matematik statistika yo'li bilan qayta ishslash. O'rtacha qiymat, dispersiya, standart chetlanish, nisbiy standart chetlanish, qayta takrorlanuvchanlik, aniqlik darajasi, extimollik chegarasi va intervali. Kimyoviy analiz usulining asosiy tavsiflari. Sezgirlik, qayta takrorlanuvchanlik, Styudent

koeffisiyenti, ishonchlik extimolligining funksiyasi, ishonchlilik chegarasi, aniqlik, tanlanuvchanlik. Dispersiya, taqsimlanish mezoni, normal taqsimlanish qonuni. Standart namunalar tayyorlash, shahodatlash va ulardan foydalanish. Analitik laboratoriyalarni metrologik shahodatlashdan o'tkazish. Namuna olish va namuna tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. Analizga birlamchi namuna olish. Namuna va analiz obyekti. Gomogen va geterogen tarkibli namunalar olish. qattiq suyuq va gaz holatdagi moddalardan o'rtacha namuna olish usullari. Namunani analiz qilinadigan shaklga o'tkazish, bosim va harorat ta'sirida parchalash va hok.

### **Kimyoviy muvozanatning asosiy turlari**

*Kimyoviy qaytar reaksiyalar.* Analitik kimyoda muvozanatning asosiy turlari: kislota-asosli muvozanat, kompleks hosil qilish, oksidlanish-qaytarilish, cho'ktirish, ekstraksiya, sorbsiya. Analitik va muvozanat konsentrasiya. Elektrostatik kuchlarning elektrolit tabiatiga va reaksiyon qobiliyatga ta'siri. Aktivlik, aktivlik koeffisiyenti. Eritmaning ion kuchi. Aktivlik koeffisiyentlarini ion kuchi turlicha bo'lgan eritmalar uchun hisoblash. Chekli va kengaytirilgan Debay va Gyukkel qonunlari. *Kislota-asosli reaksiyalar.* Kislota va asoslar haqida hozirgi zamon tushunchalari. Brensted-Louri nazariyasi. Asosli va kislotali konstantalari. Har xil ko'rinishdagi protolitik eritmalar rNini hisoblash. Protolit kuchiga ta'sir etuvchi omillar. Induksion (ichki molekulyar vodorod bog'lanish) effekt, dielektrik domiysi (molekulalararo vodorod bog'lanish). Ionlanish va dissosilanish. Erituvchi va uning avtoprotoliz konstanstasi bilan bog'liqligi. Erituvchilarning kislota-asos xossasi bo'yicha klassifikasiyasi: aprotlonli, protogenli, protofilli. Lion va liat ionlar. Lyuisning elektron nazariyasi nuqtai nazaridan kislota va asos tushunchalari. Bufer eritmalar va ularning xossalari. Bufer sig'imi. Bufer sistemalarda rN ni hisoblash.

*Kompleks hosil qilish reaksiyaları.* Analitik kimyoda ishlatalidigan komplekslarning xillari. Analitik ahamiyatga ega bo'lgan kompleks birikmalarning xossalari: barqarorlik, eruvchanlik, rangdorlik, uchuvchanlik. Metalligandli o'zaro ta'sir tavsifi bo'yicha kompleks birikmalarning sinflanishi: bir va ko'p yadroli kompleks birikmalar. Bir ligandli va ko'p ligandli (uchlamchi aralash ligandli) kompleks birikmalar. *Cho'ktirish reaksiyaları.* Absolyut «to'la» va amaliy jihatdan cho'ktirish. To'la cho'kishga ta'sir etuvchi omillar. Cho'kmalar va ularning xossalari. Kristall va amorf cho'kmalar. Cho'kmalar individual xossalaringin cho'kmaning tuzilishiga va cho'ktirish sharoitiga bog'liqligi (eruvchanlik, molekulalar qutbliligi, cho'kayotgan ion va cho'ktiruvchining konsentrasiyasi, eritmaning tuz tarkibi, rN va harorat). Kristall cho'kmalarni olish sharoitlari. Kam eruvchan kuchsiz kislota tuzlari va gidroksidlarini cho'ktirish. Metallarni gidroksidlar holida ajratish sharoitlari. Kislota-asosli analiz metodining nazariy asoslari. Birin-ketin cho'ktirish. Bir qiyin eruvchan birikmani ikkinchi bir qiyin eruvchan birikmaga aylantirish. Cho'kmalar shaklining birlamchi zarrachalar hosil bo'lish tezligiga va ularning o'sishiga bog'liqligi. Gomogen cho'ktirish. Cho'kmalarning eskirishi (qayta kristallah va birlamchi zarrachalarni agregatlash). Cho'kmalarning ifloslanish sabablari (birgalashib cho'kish va keyingi cho'kish). Birgalashib cho'kish turlarining sinflanishi (adsorbsiya, okklyuziya, izomorfizm va boshq.). Xlopin qoidasi. Analizda birgalashib cho'kishning ijobjiy va salbiy ahamiyati. Cho'ktirish reaksiyalaridan foydalanib elementlarni ajratish. Cho'ktirish uchun noorganik va organik reagentlarni qo'llash. Turli rN qiymatlarini, kompleks hosil qilish reaksiyalarini, oksidlanish-qaytarish reaksiyalarini qo'llash bilan ajratish usullari. Guruh reagentlari va ularga qo'yiladigan talablar. Analizda ko'plab marta foydalaniladigan kam eruvchan birikmalar: gidroksidlar, sulfatlar, karbonatlar, oksalatlar, sulfidlar, fosfatlar, xloridlar, xromatlar tavsifi.

*Ochish va identifikasiyalash usuli.* Ochish va identifikasiyalash usullarini tanlash va ularning vazifalari. Atomlar, ionlar, molekula va moddalarni identifikasiyalash. Bo'laklab va sistematik analiz qilish. Anorganik va organik moddalarni ochish va identifikasiyalashning fizik usullari. Mikrokristallokopik analiz, pirokimiyoziy analiz. Sifat analizining xromatografik usullari. Analizning ho'l va quruq usullari.

### **Miqdoriy analiz**

Metodning mohiyati. Bevosita va bilvosita aniqlash usullari. Gravimetrik analizda xatoliklar. Aniqlashning umumiy sxemasi. Tortim, cho'kmaning miqdori va eritmaning hajmi.

Cho'ktirilayotgan shaklga qo'yiladigan talablar. Cho'kmani eritmadan ajratish usullari. Tortilayotgan shaklga qo'yiladigan talablar. Quritish va qizdirish jarayonida cho'kma tarkibini o'zgartirish. Amorf va kristall cho'kmalar, yirik kristallarni olish sharoitlari. Gomogen cho'ktirish, cho'kmaning yetilishi. Cho'kmaning ifloslanish sababalari. Birgalashib cho'kishning sinflanishi (adsorbsiya, okklyuziya, izomorfizm). Nisbiy o'ta to'yinish. Birgalashib cho'kishning afzalliklari va kamchiliklari. Termogravimetrik analiz. Analistik tarozilar, ularning turlari va sezgirliklari. Tortish texnikasi. Gravimetrik analizga misollar.

### **Titrimetrik analiz usullari**

Titrimetrik analiz usullarining sinflanishi. Titrimetrik analizda ishlatiladigan reaksiyalarga qo'yiladigan talablar. Anorganik va organik moddalarni aniqlash. Titrimetrik aniqlashning turlari: bevosita va bilvosita titrlash. Titrimetrik analizda eritma konsentrasiyasini ifodalash usullari. Standart eritmalarini tayyorlash. Birlamchi va ikkilamchi standartlar. Ularga qo'yiladigan talablar. Fiksanallar. Ulardan foydalanim standart eritmalarini tayyorlash. Titrlash egrilari. Titrlash sakramasi va unga ta'sir etuvchi omillar. Kislota va asoslar konstantalari, konsentrasiyasi va harorat. Suvsiz muhitda kislota-asosli titrlash.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari asosida titrlash. Titrlash egrilarini tuzish. Titrlash egrilariga ta'sir etuvchi omillar: kompleksning hosil bo'lishi, vodorod ioni konsentrasiyasi, ion kuchi. Indikatorlar. Titrlash xatoliklari. Amaliyatda ishlatilishi. Permanganatometriya. Yodometriya. Bixromatometriya.

Kompleksometrik titrlash. Titrlash egrilarini tuzish. Titrlash xatoliklari. Aminopolikarbon kislotalar va ularning kompleksometriyada ishlatilishi. Etilendiamintetraasetat kislota va uning natriyli tuzlari-kompleks-III ning titrimetrik analizda ishlatilishi. Kompleksometrik titrlashga misollar: bilvosita va bevosita kompleksometrik titrlashlar. Kompsonometrik titrlashning amaliyatda qo'llanilishi. Suvning qattiqligini aniqlash.

Cho'ktirish reaksiyasi asosida titrlash. Titrlash egriligin tuzish. Titrlash aniqligiga adsorbilanish hodisasining ta'siri. Titrlash egrisi tavsifiga cho'kma eruvchanligi, konsentrasiya va haroratning ta'siri. Indikatorlar. Titrlash xatoliklari. Folgard, Mor, Fayans usullari. Titrlashning amaliyatda ishlatilishi.

### **Fizik-kimyoviy analiz usullari (Optik analiz usullari)**

Elektromagnit nurlanish spektri: uning asosiy tavsiflari (to'lqin uzunligi, chastota, to'lqin soni, nurlanish oqimi, intensivligi va hok.) Spektrning ultrabinafsha, ko'rinvchan va infraqizil sohalari. Atomlar spektri. Atom-spektroskopik analiz usullari. Energetik o'tishlar. Elektron o'tish ehtimolligi. Spektral chiziqlar va miqdoriy analiz. Nur energiyasini monoxromatlash usullari. Spektral usullarning sinflanishi. Molekulyar spektr.

### **Spektrofotometriya va fotometriya**

Metodlarning mohiyati. Fotometrik usulda ishlatilishi mumkin bo'lgan reaksiyalar. Buger-Lambert-Ber qonuni. Asosiy spektrofotometrik tavsiflar. Spektrofotometrik reaksiyaning optimal sharoitlarini tanlash. Spektrofotometriya usulining qo'llanilish sohalari. Konsentrasiyani aniqlash usullari. Nur qo'zg'atish manbalari.

### **Atom-emission spektrofotometriya metodi**

Alanga qo'zg'atish manbai sifatida. Alanga spektrlari. Turli tip alangalari temperaturalari, strukturasi va tarkibi. Analiz qilinadigan namunani kiritish usullari. Gorelkalar va purkagichlar. Analiz qilinadigan namunani alangaga kiritilganda alangada boradigan jarayonlar. Alangadagi kimyoviy jarayonlar. Atomlanish darajasiga ta'sir etuvchi omillar. Eritmadagi elementlar konsentrasiyasi va nurlanishning intensivligi orasidagi bog'lanish. Alangali fotometrlar va spektrofotometrlar. Emission spektral analiz. Yoy va chaqmoq (iskra) razryadlari qo'zg'atish manbai sifatida. Razrayad spektrlari. Hosil bo'ladigan plazmaning harorati. Elektr razryadlari plazmasidagi moddalar holati va kimyoviy reaksiyalar. Turli agregat holatlarida bo'lgan analiz qilinadigan namunani kiritish. Lazerlarning qo'llanilishi. Ko'p elementli analiz. Qo'llanilish sohalari.

### **Atom-absorbsion analiz metodi**

Atom-absorbsion aniqlashlar tavsifi. Qo'zg'atish manbalari. Atomlarning yutish

qavatlarining olinish usullari. Turli turdag'i alangalardan foydalanish. Elektrotermik atomizatorlar. Spektrofotometrik kattaliklar, bu kattaliklar va namunadagi element konsentrasiyasi orasidagi bog'lanish. Analiz natijalariga ta'sir etuvchi omillar. Atom-absorbsion analiz metodini avtomatlashtirish. Metodning imkoniyatlari, afzalligi va kamchiliklari, qo'llanilish sohalari.

### **Lyuminessent analiz metodi**

Lyuminessentlanishning hosil bo'lishi va uning turlari. Nur qo'zg'atish manbalari. Molekulyar fotolyuminessentlanish (fluorescentlanish) va uning tavsiflari. Vavilov qoidasi. Stoks-Lommel' qonunlari. Yutilish va fluoressensiyanish spektrlarining ko'zgu simmetriyasi qoidasi (Levshin simmetriyasi). Lyuminessentlanishning so'nishi. Harorat, konsentrasiya va begona aralashmalar ta'siri. Lyuminessentlanish hodisasining analitik kimyoda ishlatalishi.

### **Mass-spektrometrik analiz usullari**

Rentgen analiz usullari. Rentgen-fluorescent analiz. Yadro-fizikaviy analiz usullari va radiokimyoviy analiz usullari. Radioaktivasion analiz usullari. Analiz qilinadigan moddaning tuzilishini o'zgartirmasdan analizni bajarish. Analizning asosiy obyektlari. Geologik obyektlar, metallar, qotishmalar, biologik va tibbiy obyektlar, atrof-muhit obyektlari (suv, havo, tuproq) va hok.

### **Elektrokimyoviy analiz usullari**

Elektrokimyoviy analiz usullarining umumiyligi tavsifi va sinflanishi. Elektrokimyoviy zanjir. Indikatorli elektrod va solishtirma elektrodlar. Elektrokimyoviy muvozanat potensiali. Tok o'tayotganda elektrokimyoviy zanjirlarda kuzatiladigan xodisalar: kuchlanishning qarshilik ta'sirida pasayishi, konsentrasiyon va kinetik qutblanishlar. Elektrokimyoviy analiz usullarining sezgirligi va tanlanuvchanligi.

### **Elektrogravimetrik analiz**

Metodning qo'llanilish soxalari, qulayligi va kamchiliklari. Doimiy elektrod potensiali va doimiy tok kuchida elementning ajralishi. Ichki elektroliz metodi, uni mikroelementlarni konsentrash va aniqlashda qo'llanilishi. Ishchi elektrodlarning doimiy potensiali va doimiy tok kuchida simob va qattiq elektrodlarni qo'llash orqali elementlarni ajratish. Elektrolitik ajratishda, kompleks hosil bo'lisdan foydalanish. O'ta sof materiallar analizida simob katodidan foydalanish.

### **Bevosita potensiometriya**

Potensialni o'lchash. Nernst tenglamasi. Qaytar va qaytmas oksidlanish-qaytarilish sistemalari. Indikatorli elektrodlar. Ionometriya, ion selektiv elektrodlar, sinflanishi. Ionometriyaning amaliyatda ishlatalishi. Eritmada ionlar konsentrasiyasini va rN ni aniqlash. Titrlash jarayonida elektrod potensialining o'zgarishi. Ekvivalent nuqtani aniqlash usullari. Potensiometrik titrlashda ishlataladigan reaksiya turlari. Potensiometrik titrlashning amaliyatda ishlatalishi. Kislota va ishqorlar miqdorini aniqlash. Kislotalar aralashmasini, ko'p asosli kislota va asoslar aralashmasini miqdoriy analiz qilish.

### **Kulonometriya**

Kulonometriyaning nazariy asoslari. Faradey qonunlari. Elektr miqdorini aniqlash usullari. Bevosita va bilvosita kulonometrik analiz (kulonometrik titrlash). Kulonometrik titrantni ichki va tashqi generasiyalash. Kulonometrik titrlashning boshqa titrimetrik usullarga nisbatan afzalliklari va kamchiliklari. Kulonometrik titrlashning amaliyatda qo'llanilishi.

### **Voltampermetriya**

Voltampermetrik usullarning sinflanishi. Indikatorli elektrod va solishtirma elektrodlar. Simob elektrodlarning afzalliklari va kamchiliklari. Voltampermetriya egriligi (polyarogramma)ni olish va tavsiflash. Kondensatorlik, migrasion va diffuzion toklar. Chekli, diffuzion tok. Polyarografiya. Ilkovich tenglamasi. Polyarografik to'lqin uchun Ilkovich-Geyrovskiy tenglamasi. Yarim to'lqin potensiali va unga ta'sir etuvchi omillar. Polyarografik sifat va miqdoriy analiz. Voltamperometrik analiz usullarining takomillashtirilgan xillari.

### **Amperometriya**

Amperometrik titrlash, usulning mohiyati. Indikatorli elektrodlar. Indikatorli elektrod

potensialini tanlash. Bir va ikki indikatorli qutblangan elektrodlar yordamida amperometrik titrlashlar, titrlash egrilarining ko'rinishlari. Cho'ktirish. Kompleks hosil qilish va oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining ishlatilishi. Polyarografik va amperometrik analiz usullarining amaliyatda ishlatilishi.

### III. ORGANIK KIMYO

#### Kimyoviy bog'lanish va uning turlari

Kimyoviy bog' va uning turlari. Uglerodning zanjirli va halqali birikmalari. Radikallar, asosiy funksional guruhlar. Tuzilish formulalari. Organik birikmalarining tuzilish nazariyasi va uning ahamiyati.

**Uglevodorodlar.** **Alkanlar.** Alkanlarning gomologik qatori, nomlanishi va izomeriyasi. Alkil radikallar. Alkanlarning kimyoviy xossalari. Alkanlardagi radikal-zanjir almashinish reaksiyasi mexanizmlari haqida umumiyl tushunchalar: galogenlash, sulfoxorlash, sulfooksidlash, nitrolash, oksidlash reaksiyalari.

**Alkenlar.** Alkenlarning nomlanishi, izomeriyasi. Qo'sh bog'ni hosil qilish usullari.

Alkenlarning reaksiya mexanizmlari haqida tushuncha.

Alkenlarni geterogen va gomogen gidrogenlash. Qo'sh bog'ga kislotalar, galogenvodoroqlar, suv va gaalogenlarning elektrofil birikishi. Markovnikov qoidasi va uni tushuntirish. Elektrofil birikishning fazoviy kechishi. Alkenlarga radikal birikish. Vodorod bromidning (Karash bo'yicha) birikish yo'naliшining o'zgarishi.

**Alkadiyenlar.** Alkadiyenlarning tuzilishi, nomlanishi, turlari va izomeriyasi. Muhim 1,3-diyenlar va ularni degidrogenlash, degidroxorlash, degidratlash reaksiyalari yordamida olish. Konyugirlangan qo'sh bog'li diyenlarning elektron tuzilishi. 1,3-diyenlarning kimyoviy xossalari: katalitik gidrogenlash, galogenlarning va galogenvodoroqlarning elektrofil birikishi, bu reaksiyalarning kinetik va termodinamik nazorat sharoitidagi yo'naliшhi.

**Kumulenlar.** Elektron va fazoviy tuzilishi.

**Alkinlar.** Alkinlarning nomlanishi va izomeriyasi. Uch bog'ni hosil qilish usullari: aseten olishning usullari. sp-gibridlanish tushunchasi asosida uch bog'ning tuzilishini tushuntirish, galogenlarning birikishi va mexanizmi. Kucherov reaksiyasi, spirtlar, karbon kislotalar, galogenovodorodlar va sianid kislotaning birikishi.

#### Gomofunksional birikmalar

Fazoviy kimyoning elementlari va organik birikmalarining optik izomeriyasi. Molekulalarning xiralligi. R-, S- nomenklatura. Proyekcion formulalar. Enantiomerlar va rasematlar.

**Alifatik qator uglevodorodlarining monogalogenli hosilalari,** ularning nomlanishi, izomeriyasi. Hosil qilish usullari: to'yingan uglevodorod vodorod atomining galogenga almashinishi, qo'sh bog'ga birikish reaksiyalari, spirtlarning gidroksil guruhini almashtirish.

#### Monogalogenalkanlarning kimyoviy xossalari.

Monogalogenalkanlardagi galogen atomlarining nukleofil almashinish va degidrogenlash reaksiyalari. Reaksiya mahsulotlari nisbatining nukleofil va asosning tabiatiga va konsentrasiyasiga, galogenalkanning tuzilishiga, erituvchining tabiatiga bog'liqligi: sintezlar rejalahtirilganda shu bog'liqliklarni hisobga olish. Galogenalkanlarni vodorod bilan qaytarish, ularning metallar bilan reaksiyasi: metallorganik birikmalar olish. Vyurs reaksiyasi. Kori-Xauss reaksiyasi.

**To'yinmagan galogenbirikmalar.** Vinilxlorid. Allilxlorid. Olish usullari.

To'yinmagan galogenli birikmalarining kimyoviy xususiyatining shaklanishida ikkita funksional guruhlarning o'zaro ta'sirining roli.

**Uglevodorodlarning gidroksilli hosilalari.** Bir atomli to'yingan spirtlar. Spirtlarni olish usullari. Oddiy alifatik spirtlarning sanoatda olinishi. Spirtlarning kimyoviy xossalari: gidroksil guruhining sulfat kislota, galogenovodorodlar, mineral kislotalarning galogenangidridlari ta'sirida almashinishi, degidratlanishi. Spirtlarning oksidlanishi va degidrogenlanishi. Spirtlarning ishlatilishi.

**Ko'p atomli spirtlar.** Glikollar. Glikollarni olish usullari, kimyoviy xossalari. Di- va polietilenglikollar. Gliserin. Xossalari. Gliserinni sintez qilish usullari.

**To'yinmagan spirtlar.** Allil spirti. Allil spirtining sintez usullari, kimyoviy xossalari.

**Oddiy efirlar.** Oddiy efirlarning tuzilishi va nomlanishi, turlari. Dialkil efirlarini olish usullari. Kimyoviy xossalari.

**Karbonil birikmalar.** Tuzilishi va nomlanishi, turlari. Karbonil guruhini hosil qilish usullari. Aldegidlar va ketonlar.

Kimyoviy xossalari. Keto-yenol tautomeriya. Aldol-kroton kondensasiya reaksiyalari va uning kislota va asos katalizidagi mexanizmi.

Aldegid va ketonlarning oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.

**$\alpha$ ,  $\beta$ -To'yinmagan aldegid va ketonlar.** Umumiy sintez usullari. Gliserinni degidratlash bilan akrolein sintez qilish. To'yinmagan karbonil birikmalarning elektron tuzilishi va uning reaksiyaga kirishish qobiliyatiga ta'siri. To'yinmagan aldegid va ketonlarga suv, spirtlar, galogenovodorodlar, natriy bisulfit, ammiak va aminlar, vodorod sianid va magniy organik birikmalarning birikishi.

**Karbon kislotalar va ularning hosilalari.** Tuzilishi, turlari va nomlanishi. Olish usullari. Karbon kislotalarning xossalari va tabiiy manbalari. Karbon kislotalarning hosilalari.

**Dikarbon kislotalar.** Nomlanishi, turlari va tuzilishi. Sintez usullari: sikloalkanlarni, alislik spirtlarni va ketonlarni oksidlash, mono- va dinitrillarning gidrolizi, malon va asetosirka efirlari yordamida sintezlar.

Bitta va ikkita karboksil guruhlari bo'yicha hosilalar olish, aralash hosilalar.

**To'yinmagan monokarbonkislotalar.** Tuzilishi, turlari,  $\alpha$ ,  $\beta$ -to'yinmagan kislotalarni olish usullari. Kimyoviy xossalari

**To'yinmagan dikarbon kislotalar.** Malein va fumar kislota. Malein kislota va uning angidridini olish usullari. Fazoviy izomeriya.

**Nitrobirikmalar.** Nomlanishi, turlari va tuzilishi. Nitrobirikmalarni olish usullari. Alkanlarni nitrolash (Konovalov reaksiyasi), galogen atomini nitroguruuhga almashtirish, aminlarni oksidlash. Kimyoviy xossalari.

**Aminlar.** Nomlanishi. Turlari. Alifatik uglevodorodlarning galogen-, hidroksi- va amino-hosilalaridan, amidlardan, azidlardan, karbon kislota gidrazidlari va hidroksam kislotalaridan olish usullari. Kimyoviy xossalari.

**Magniy- va litiyorganik birikmalar.** Galogenli birikmalar, yuqori SN kislotalik xossasini namoyon qiladigan uglevodorodlardan olish. Kimyoviy xossalari. Kross-birikish reaksiyasi.

### Geterofunksional birikmalar

**Gidroksikislotalar.** Nomlanishi va turlari. Alifatik hidroksikislotalar olishning umumiy usullari. Reformatskiy reaksiyasi asosida  $\beta$ -hidrokislotalarni sintez qilish. Hidroksikislotalarning tabiiy manbalari va asosiy vakillari. Kimyoviy xossalari.

**Aldeido- va ketokislotalar.** Nomlanishi va sinflanishi. Oddiy  $\alpha$ -aldeido- va  $\alpha$ -ketokislotalar. Ketonlardan, karbon kislotalar va ularning hosilalaridan olinishi. Kimyoviy xossalari.

**Uglevodlar.** Nomlanishi va turlari. O'ziga xos kimyoviy xossalri. Monosaxaridlar. Di- va polisaxaridlar

**Aminokislotalar.** Nomlanishi va turlari. Tabiiy  $\alpha$ -aminokislotalarning tuzilishlari bo'yicha xillari. Sintez qilish usullari. Va xossalari

**Oqsillar.** Turlari. Polipeptidning tuzilishi, aminokislota tarkibini aniqlash va polipeptid zanjiridagi aminokislota qoldiqlarining tarkibini aniqlash usullari haqida tushuncha. Oqsillarning tuzilishi.

### Siklik birikmalar

**Sikloalkanlar.** Nomlanishi va turlari, tuzilishi, izomeriyasi. Siklik birikmalarning sintezi. Sikloalkanlarning fazoviy tuzilishi. Siklogeksan va uning hosilalarining konformasiyalari, ekvatorial va aksial bog'lar, siklogeksan hosilalarining geometrik izomeriyasi. Siklopropan

halqasining fazoviy va elektron tuzilishining o'ziga xosligi. Siklobutan, siklopetan va siklogeksanning kimyoviy xossalari. Siklopropanning o'ziga xos xususiyatlari.

### Aromatik birikmalar

**Aromatik uglevodorodlar.** (Arenlar). Benzol va uning gomologlari, nomlanishi, izomeriyasi. Aromatik uglevodorodlarning manbalari va olish usullari. Benzol halqasining elektron tuzilishi va benzolning kimyoviy xossalari. Aromatiklik haqida tushuncha. Xyukkel qoidasi. Nobenzoid aromatik sistemalar. Siklopropenil- va tropiliy kationlari. Siklopentadiyenil-anioni, azulen, annulenlar. Aromatik qatordagi elektrofil almashinish reaksiyalari: sulfolash, nitrolash, galogenlash, alkillash, asillash. Bu reaksiyalarning aromatik uglevodorodlarni qayta ishlashdagi ahamiyati, mexanizmlari haqida tushuncha va ularni tajribada asoslash.  $\sigma$ - va  $\pi$ -komplekslar. Benzol halqasidagi o'rindbosarlarning mahsulotlarning izomer tarkibiga va reaksiya tezligiga ta'siri. Radikal almashinish va birikish reaksiyalari.

**Alkilbenzollar.** Alkilbenzollarni olish. Benzol halqasida elektrofil almashinish reaksiyalari, bu reaksiyalarda yo'naltirishning xususiyati. Dezalkillash, disproporsiyalanish, alkilbenzollarning izomerlanishi. Yon zanjorda radikal o'rindbosarlarning mahsulotlarning izomer tarkibiga va reaksiya tezligiga ta'siri.

**Naftalin.** Naftalin va boshqa ko'p yadroli uglevodorodlarning manbalari. Naftalin hosilalarining nomlanishi, izomeriyasi, elektron tuzilishi va aromatikligi. Naftalining kimyoviy xossalari.

**Aromatik galoidbirikmalar.** Olish usullari. Aromatik uglevodorodlarni galogenlash, diazoniy tuzlaridan olish. Galogen uglerod bog'i uzilishi hisobiga ketadigan reaksiyalar. Aromatik galoid birikmalarning metallar bilan ta'sirlanishi: metallorganik birikmalarni olish. Kross-birikish reaksiyalar. Elektrofil almashinish reaksiyalar. O'rindbosarlarning induksion va mezomer ta'siri haqida tushuncha. Galogen atomlarining o'rindbosar sifatida ta'siri.

**Nitrobirikmalar.** Aromatik nitrobirikmalarning xossalari. Nitroguruhning elektrofil almashinish reaksiyasi tezligiga va yo'nalishiga ta'siri.

Nitrobirikmalarning qisman qaytarilish mahsulotlari. Nitro-birikmalarning tautomerlanishi, dimerlanish, kondensasiya reaksiyalar.

**Aromatik uglevodorodlarning gidroksilli hosilalari.** Nomlanishi. Fenol va uning gomologlari. Naftollar. Aromatik yadroga gidroksil guruhi kiritish usullari. Fenollarning kislotalik xususiyatlari.

**Karbonil birikmalar.** Aromatik aldegidlarga xos xususiyatlari.

Aromatik-alifatik qator ketonlari, ularni olish va kimyoviy xossalari. Ularning oksimlari va fazoviy tuzilishi. Bekman qayta guruhlanishi.

**Karbon kislotalar.** Almashingan benzoy kislotalarning dissosiyalanish konstantasiga o'rindbosarlarning ta'siri. Aromatik karbon kislotalar sintez qilishning umumiyl usullari. Benzoy kislotsasi va uning hosilalari.

Dolchin kislotsasi, olinishi va xossalari. Antranil kislotsasi, olinishi va uning digidrobenzol va azobo'yoqlar olishda ishlatilishi.

**Aminlar.** Aromatik aminlarning turlari. Aromatik yadrodag o'rindbosarlar tabiat va joylashishining aminlar asosligiga ta'siri. Aminoguruhning benzol yadrosiga ta'siri: elektrofil almashinish reaksiyalar. Aminoguruhni himoyalash.

**Diazobirikmalar.** Diazotirlash reaksiyasi, uni amalga oshirish sharoitining amin tuzilishiga bog'liqligi.

Diazobirikmalarning azot chiqishi bilan boradigan reaksiyalar: diazoguruhn vodorodga, gidroksilga, galogenlarga, sian va nitroguruhlarga almashtirish.

Diazobirikmalarning azot chiqmasdan boradigan reaksiyalar. Qaytarish, triazenlar hosil bo'lishi.

### Geteroxalqli birikmalar

Geterohalqli birikmalar haqida tushunchalar va ularning sinflanishi. Besh a'zoli bitta geteroatom tutgan geterohalqli birikmalar (furan, tiofen, pirrol), ular sintezining umumiyl usuli va o'zaro aylanishlari (Yuryev). Furan, tiofen va pirrol va benzolning fizikoviy va kimyoviy xossalariini taqqoslash.

Fenol va pirrol xossalarining o'xshashligi.

Azot, kislorod va oltingugurt tutgan besh a'zoli halqali birikmalar.

#### 4. FIZIKAVIY KIMYO

Ideal gaz qonunlari: Klapeyron-Mendeleyev, Boyl-Mariott, Sharl-Gey-Lyussak. Universal gaz doimiysi. Xolat tenglamalari va termik koeffisiyentlar: termik kengayish koeffisiyenti, bosim ortishining koeffisiyenti, izotermik sifilish koeffisiyenti. Termik koeffisiyentlarning o'zarobog'lanishi.

Issiqlik, temperatura, bosim, ichki energiya, ish, intensivlik faktorlari, termometrik shkala, absolyut temperatura, termometrlar.

Gazlarning kinetik nazariyasining asosiy tenglamasi (Bolsman tenglamasi). Gazlarning issiqlik sig'imi. Issiqlik sig'imining erkinlik darajasi bilan bog'liqligi.

Real gazlar. Van-der-Vaals tenglamasi. Gazlarning kondensatlanishi. Kritik nuqta. Bug'va gaz orasidagi farq. Keltirilgan bosim, hajm va temperaturalar.

Kimyoviy termodinamikaning vazifasi. Fenomenologik (klassik) termodinamika, nomuvozanat jarayonlarning termodinamikasi, statistik termodinamika.

Termodinamikani birinchi qonuning ta'riflari. Termodinamika birinchi qonuning matematik ifodasi, uning integral, differensial hamda xususiy ko'rinishlari. Kalorik koeffisiyentlar. Termodinamikaniqning birinchi qonunini kalorik koeffisiyentlar orqali ifodalash.

Ideal gazning turli jarayonlardagi kengayish ishi, jarayon issiqligi va ichki energiyaning o'zgarishi. Joul qonuni. Ideal gazning adiabata tenglamasi. Puasson tenglamalari. Entalpiya. Gess qonuni va undan kelib chiqadigan xulosalar. Termokimyo. Xosil bo'lismi va yonish issiqliklari. Issiqlik sig'imining haroratga bog'liqligi. Reaksiya isiqlik effektining haroratga bog'liqligi. Kinxgof tenglamasi.

Termodinamikaning ikkinchi qonuni va uning ta'riflari: Tomson (Kelvin), Ostvald, Klauzius, Karateodori. Entropiya tushunchasi. Karno sikli. Foydali ish koeffisiyenti. Qaytar jarayonlar uchun termodinamikaning ikkinchi qonuni. Keltirilgan issiqlik va uning to'liq differensial ekanligi. Entropiya ekstensivlik faktori ekanligi. Izolyasiyalangan sistemalarda termodinamik jarayonning o'z-o'zicha borishini, yo'naliishi va chegarasini belgilovchi umumiy ko'rsatkich. Maksimal ish tushunchasi. Energiyaning dissipasiyasi. Entropianing tartibsizlik o'lchovi ekanligi.

Qaytmas jarayonlar uchun termodinamikaning ikkinchi qonuni. To'liq qaytmas jarayonlar. Qaytmas o'z-o'zidan boruvchi jarayonlar uchun izolyasiyalangan sistemada, izotermik qaytar jarayonlar hamda siklik qaytmas jarayonlar uchun termodinamika ikkinchi qonuning ifodalari. Qaytar va qaytmas jarayonlar uchun termodinamika ikkinchi qonuning ifodasi. Termodinamika birinchi va ikkinchi qonunlarining umumlashgan tenglamasi.

Termodinamikaning 2-qonunini statistik asoslash. Bolsman tenglamasi. Sistema xolatining termodinamik ehtimolligi bilan uning entropiyasi orasidagi bog'lanish. Termodinamikaning 1-qonuni absolyut qonun ekanligi va termodinamikaning 2-qonuning statistik tabiat. Fluktuasiyalar tushunchasi.

Turli jarayonlarda entropianing o'zgarishi.

Termik va kalorik koeffisiyentlar orasidagi bog'liqlik.

Termodinamik potensiallar. Xarakteristik funksiyalar. Izobarik-izotermik va izoxorik-izotermik potensiallar. Gibbs va Gelmgols energiyalari. Gibbs- Gelmgols tenglamalari. Kimyoviy potensial.

#### Kimyoviy muvozanat

Kimyoviy reaksiyaning izobarik va izoxorik tenglamalari. Kimyoviy moyillik. Real sistemalarning termodinamikasi. Lyuis-Rendall postuloti. Uchuvchanlik (fugitivlik) va aktivlik tushunchalari.

Termodinamikaning uchinchi qonuni. Nernstning issiqlik teoremasi. Plank postuloti. Absolyut entropiya. Plank postulotidan kelib chiqadigan xulosalar. Absolyut nolga erisha

olmaslik prinsipi. Muvozanat konstantasini Temkin va Shvarsman usulida xisoblash. Nernstning issiqlik teoremasi va Plank postulotiga asoslanib, termodinamik funksiyalarning standart qiymatlari bo'yicha muvozanat konstantasini hisoblash.

### **Statistik termodinamika**

Statistik termodinamika vazifalari. Makro va mikroxolatlar va termodinamik ehtimollik. Fazaviy fazo tushunchasi. Bolsman tenlamasi. Statistik termodinamikaning postuloti. Xolatlar bo'yicha yig'indi. Bolsman taqsimoti. Asosiy termodinamik kattaliklar uchun statistik ifodalar. Ularni holatlar bo'yicha yig'indi orqali ifodalash. Aralashish entropiyasi. Ilgarilama, tebranma, aylanma va elektron harakatlar xolatlari bo'yicha yig'indilar.

### **Chiziqli termodinamika**

Qaytmas (nomuvozanat) jarayonlarnin termodinamikasi. Oqimlar. Umumlashgan kuchlar. Kvazistasionar, stasionar, eksponensial ko'rinishda o'zgaruvchi oddiy va lavinasimon jarayonlar. Oqim va umumlashgan kuch orasidagi munosabat. Oqimni harakatlantiruvchi intensivlik faktorlari. Issiqlik oqimining temperatura gradiyentiga, massa oqimining konsentrasiya gradiyentiga, elektr oqimining potensial gradiyentiga bog'liqligi. Oqimlarning o'zaro ta'siri: termodiffuziya, Dyufur effekti, diffuzion potensial va konsentrasiyon qutblanish. Oqimlar jarayonida sistema entropiyasining o'zgarishi. Entropiyaning vaqt birligida ortishi bilan oqimlar va umumlashgan kuchlar orasidagi bog'lanish. Onzagerning o'zarolik munosabati. Kinetik koeffisiyentlarning simmetriklik prinsipi. Kompensasiyalanmagan issiqlik. Kompensasiyalanmagan issiqlik va kimyoviy moyillik. Entropiyaning tashqi va ichki o'zgarishi. Entropiyaning hosil bo'lismi tezligi. Izolyasiyalangan sistemalar uchun entropiyaning to'liq o'zgarishi.

Nomuvozanat jarayonlar termodinamikasining rivojlanish bosqichlari. Prigojin, Glansdorf, Kazimir va boshqa olimlarning nomuvozanat jarayonlar termodinamikasining usullarini chiziqli bo'lмаган sohaga tadbiq qilishi.

Lokal muvozanatlardan haqidagi postulot.

Kompensasiyalanmagan issiqlikning termodinamik funksiyalarning o'zgarishi bilan bog'liqligi.

Kimyoviy o'zgaruvchi, kimyoviy moyillik va termodinamikaning birinchi qonuni. Ochiq sistemalar uchun termodinamikaning birinchi qonuni.

### **Fazaviy muvozanat**

Faza, komponent, komponentlar soni, erkinlik darajasi tushunchalari. Gibbsning fazalar qoidasi. Sistemaning variantligi. Sistemalarning sinflanishi. Bir komponentli sistemalar uchun fazalar qoidasi. Suv va oltingugurt uchun holat diagrammalari. Bug'lanish egrisi uchun Klapeyron-Klauzius tenglamasining differential va integral ko'rinishlari. Birinchi va ikkinchi tur fazaviy o'tishlar. Erenfest tenglamasi. Polimorf o'tishlar. Mono- va enantiotrop fazaviy o'tishlar. Fizik-kimyoviy analiz.

Ikki komponentli sistemalar. Sovush va xolat diagrammalari. Xolat diagrammalarining turli ko'rinishlari: kimyoviy ta'sir bo'lмаган va qattiq eritma hosil qilmaydigan; kimyoviy ta'sir bo'lмаган va cheksiz eriydigan qattiq eritmalar hosil qiluvchi; kimyoviy ta'sir bo'lмаган va chekli eriydigan qattiq eritmalar hosil qiluvchi; kongruent suyuqlanuvchi barqaror kimyoviy birikmalar tutgan (qattiq eritmalar xosil bo'lmaydigan); inkongruent suyuqlanuvchi beqaror kimyoviy birikmalar tutgan sistemalarning xolat diagrammalari.

Ikki komponentli sistemalarning xolat diagrammalarini analiz qilishda likvidus, solidus chiziqlari, evtektiv nuqta, evtektik tarkibli suyuq qotishma, evtektik temperatura, figurativ nuqta, kannoda chizig'i, kongruent va inkongruent suyuqlanuvchi kimyoviy birikmalar, singulyar va distektik nuqtalar, peritektik nuqta kabi tushunchalar. Richag yelka qoidasi.

Qattiq eritmalar. Izomorfizm tushunchasi.

Uch komponentli sistemalar. Uch komponentli sistemaning tarkibini ifodalashda Gibbs va Rozebum usullari. Bir xil ionli va evtonikaga ega bo'lgan ikki tuz eritmasining xolat diagrammasi. Tuzlar suv bilan gidratlar yoki qo'sh tuzlar, kompleks birikmalar yoki qattiq eritmalar xosil qiluvchi murakkab xolat diagrammalari.

## **Eritmalar**

Eritmalar haqida umumiy tushunchalar. Ideal, cheksiz suyultirilgan va real eritmalar. Parsial molyar kattaliklar. Gibbs-Dyugem va Dyugem-Margulis tenlamalari. Eritmalarning zamonaviy nazariyasi: solvatlanish va gidratlanish, solvat qavat tushunchasi. Regulyar va atermal eritmalar. Eritma komponentlarining kimyoviy potensiali. Aktivlik, aktivlik koeffisiyenti. Uchuvchanlik, uchuvchanlik koeffisiyenti.

Komponentning eritma ustidagi bug' bosimi. Raul va Genri qonunlari. Ideal, cheksiz suyultirilgan va real eritmalar uchun Raul va Genri qonunlari.

## **Qattiq moddalarnin eruvchanligi. Shreder tenglamasi.**

### **Ebulioskopik va krioskopik qonunlar**

Diffuziya va osmos. Osmotik bosim qonunlari. Taqsimlanish koeffisiyenti. Ekstraksiya.

Suyuqlik-bug' muvozanati. Gibbs-Konovalov qonunlari. Vrevskiy qonunlari. Azeotrop aralashmalar va ularning xossalari.

## **Elektrokimyo**

Elektrolit eritmalarining tuzilishlari haqida tushunchalar. (T.Grodgus, M.Faradey, S Arrenius). Arrenius nazariyasi. Ionlarning o'zaro ta'sirini termodinamik nuqtai nazaridan ifodalash. Faollik va faollik koeffisiyentlari. Debay-Xyukkel nazariyasining asosiy ehtimolliklari. Ion atmosferasining potensiali. Elektrolitlar haqida zamonaviy tushunchalar. Solishtirma va ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik. Ionlar xarakatchanligi va Kolraush qonuni. Tashish soni. Ostvaldning suyultirish qonuni. Konduktometrik titrlash. Ionlarning xarakatchanligi, ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik va tashish sonini Debay-Xyukkel-Onzager nazariyasi asosida eritma tarkibiga bog'liqligini talqini.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini kimyoviy va elektrokimyoviy amalga oshirish usullari. Elektrokimyoviy jarayonlar termodinamikasi. Muvozanatdagagi elektrokimyoviy zanjirlar va ularning EYuK, Nernst va Gibbs-Gelmgols tenglamalari. Elektrod potensialining hosil bo'lishi. Diffuzion va oksidlanish-qaytarilish potensiallari. Konsentrasiyon elementlar. Elektrodlarni sinflash. Standart elektrodlar. EYuK ni aniqlash usullari. EYuK dan fizik-kimyoviy taxlilda foydalanish. Metallar korroziyasi.

## **Kimyoviy kinetika**

Kimyoviy kinetika- kimyoviy reaksiyalarning tezligi va mexanizmi xaqidagi fan. Uning asosiy tushunchalari. Kinetikani o'rganishning nazariy va amaliy axamiyati. Kinetik chiziqlar va ularni tuzish usullari. Gomo- va geterogen reaksiyalarga massalar ta'siri qonunini qo'llash. Differensial va integral kinetik tenglamalar.

Reaksiyalarning tartibi va molekulyarligi. Reaksiya tartibini topishning Ostvald-Noyes, Vant Goff va boshqa usullari. Kimyoviy reaksiyalarning tezlik doimiysini xisoblash usullari. Reaksiya tezligiga ta'sir etuvchi omillar: reagentlar konsentrasiyasi, sterik omil, harorat, erituvchining tabiatи, ion kuchi.

Kimyoviy reaksiyalarning kinetik jihatdan tabaqlanishi. Oddiy va murakkab reaksiyalar. Oddiy reaksiyalar kinetikasi, ularga mos keladigan kinetik tenglamalarni keltirib chiqarish. Arrenius tenglamasi. Faollanish energiyasi va uni hisoblash usullari.

Kinetikaning nazariyaları: faol to'qnashuvlar nazariyasi va o'tish holat nazariyasi (faollanish kompleksi).

Qaytar reaksiyalar kinetikasi. Yonma-yon va ketma-ket ketadigan reaksiyalar kinetikasi.

## **Kataliz**

Katalizning ta'rifi va uning umumiy xususiyatlari. Kimyoviy va biokimyoviy reaksiyalarda, kimyoviy maxsulotlar ishlab chiqarishda katalizning o'rni va ahamiyati. Sanoat miqiyosida qo'llaniladigan asosiy katalitik jarayonlar. Geterogen katalizatorlarni olish usullari: cho'ktirish, shimdirish, mexanik aralashmalar va metall qotishmalar tayyorlash.

Gomogen va geterogen katalitik jarayonlarning tabaqlanishi. Gomogen katalizning nazariyaları va mexanizmları. Gomogen katalizda oraliq birikmalar. Gomogen katalizning kinetikasi. Gomogen katalizga misollar.

Geterogen kataliz. Geterogen katalitik reaksiyalarning asosiy bosqichlari. Geterogen

katalizatorlar yuzasidagi faol markazlarning mavjudligi haqidagi tasavvurlar va ularning tabiatи. Geterogen katalizdagi oraliq birikmalar. Geterogen katalitik reaksiyalarda adsorbsiyaning o’rnи. Katalizatorlar ishtirokidagi geterogen reaksiyalarning mexanizmlari. Adsorbilash qobiliyatiga qarab katalizatorlarning faolligini aniqlash.

### **Asosiy darsliklar va o’quv qo’llanmalar ro’yxati**

#### **Organik kimyo**

##### **Asosiy:**

1. Reutov O.A., Kurs A.L., Butin K.P. Organicheskaya ximiya. Uchebnik dlya studentov ximicheskix spesialnostey i aspirantov M.: MGU. 1999, 1985 s.
2. Artemenko A.I. Organicheskaya ximiya. M.: «Ximiya». 2002, 848s.
3. Roberts Dj., Kasserio M. Osnov organicheskoy ximii. T.1. 842s. T.2. 888s. Perevod s angl. pod redak. akadem. A.N.Nesmyanova. M.: «Mir». 1988g.
4. Terney A. Sovremennaya organicheskaya ximiya. V 2-x t. M.: «Mir». 1981g. T.1,2.
5. March Dj. Organicheskaya ximiya: v 4-x t. M.: «Mir». 1985g. T.1-4.

##### **Qo’shimcha:**

6. Nesmeyanov A.N., Nesmeyanov N.A. Nachala organicheskoy ximii. V 2-x t. M.: 1974. T.1,2.
7. Gaupman Z., Grefe Yu., Remane X. Organicheskaya ximiya. M.: «Mir». 1979. 838s.
8. Morrison R., Boyd R. Organicheskaya ximiya. M.: «Mir». 1974g. 1132s.
9. Neyland O.Ya. Organicheskaya ximiya. M.: «Vsshaya shkola», 1990g. 750s.
10. Shabarov Yu.S. Organicheskaya ximiya. M.: «Ximiya». 2000. 848s.
11. Vasuro K.V., Miščenka G. L. Imennye reaksi v organicheskoy ximii. M.: Ximiya. 1976g. 526s.
12. Berezin B.D, Berezin D.B. Kurs sovremennoy organicheskoy ximii. M.: Vsshaya shkola. 2003g. 768 s.
13. Traven V.F. Organicheskaya ximiya v 2-x t. M.: IKS «Akademkniga» 2004 g. T.1. 727 s., T.2. 582 s.
14. Axmedov Q.N., Yo’ldoshev H.Y. Organik kimyo usullari. T.: «Universitet». 1998, 2003 y 1 va 2-qism.
15. Axmedov Q.N., Abdushukurov A.K., Tojimuxamedov X.S., Yo’ldoshev A.M. Organik kimyo umumiy kursidan ma’ruzalar matni. T.: «Universitet». 2000 y. 122 b.

##### **Internet ma’lumotlari:**

1. 16. Bochkov A.F., Smit V.N., Keypl R. «Organicheskiy sintez», «Nauka i iskusstvo» per. s angl M.: «Mir», 2001. -573 s. URL: <http://www.mir-pubs.dol.ru>

### **Analitik kimyo**

##### **Asosiy:**

1. Vasilyev V.P. Analitik kimyo. 1-qism. Toshkent. 1999, 337 b.
2. Zolotov Yu.A., Doroxova Ye.N., Fadeyeva V.I. i dr. Osnov analiticheskoy ximii: Ucheb. posob. M.: Vsya shkola, V 2 kn. Kn.2. M.: Vsya shkola. 2004, 496 s.
3. Fayzullayev O. Analitik kimyo asoslari. Toshkent, A.Qodiriy nashriyoti. 2003, 444 b.
4. Vasilyev V.P. Analiticheskaya ximiya. M.: Vsya shkola, 1989, V 2 kn.
5. Pilipenko A.T., Pyatniskiy I.V. Analiticheskaya ximiya. V 2 t. M.: Ximiya 1990

##### **Qo’shimcha:**

6. Fayzullayev O. Analitik kimyo. Toshkent, «Yangi asr avlodи», 2006, 488 b.

7. Vasilyev V.P. Analiticheskaya ximiya. M.: «Drofa», 2004 V 2-x kn.
8. Korenman Ya.I. Praktikum po analiticheskoy ximii. M.: 2005, «Kolos» Kn.1.
9. Korenman Ya.I. Titrimetricheskiye metod analiza. M.: 2005, «Kolos» Kn.2.
10. Zolotov Yu.A., Doroxova Ye.N., Fadeyeva V.I. Osnov analiticheskoy ximii: Ucheb. posob. M.: Vscha shkola, V 2 kn. Metod ximicheskogo analiza. M.: Vscha shkola. 1999, 324 s.
11. Yanson E.Yu. Teoreticheskiye osnov analiticheskoy ximii: Uchebnoye posobiye. M.: Vscha shkola. 1987, 261 s.
12. Alekseyev V.N. Kurs kachestvennogo ximicheskogo polumikroanaliza. M.: Ximiya, 1973, 584 c.
13. Fayzullayev O. Turabov N., Ro'ziev E., Quvatov A., Muhamadiev N. Analitik kimyo. Laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, «Yangi asr avlod», 2006, 448 b.
14. Zolotov Yu.A., Doroxova Ye.N., Fadeyeva V.I. i dr. Osnov analiticheskoy ximii: Ucheb. posob. M.: Vscha shkola, V 2 kn. Kn.1. 1999, 352 s.
15. Bonchev P.R. Vvedeniye v analiticheskuyu ximiyu. L.: Ximiya, 1978. 496 s.
16. Peters D., Xayes Dj., Xifte G. Ximicheskoye razdeleniye i izmereniye: Teoriya i praktika analiticheskoy ximii: V 2 kn. M.: Ximiya. 1978.
17. Boboyev N.B., Turabov N.T., Ibraimov Ch.I. Titrimetrik analiz metodlari. Metod. qo'l. Toshkent. Universitet. 1994. 36 b.
18. Tolipov Sh.T., Xusainov X. Analitik kimyodan masalalar to'plami. Toshkent. O'qituvchi, 1983.
19. Doroxova Ye.N., Proxorova G.V. Zadachi i vopros po analiticheskoy ximii. M.: Izd-vo Mosk. un-ta. 1984. 215 s.
20. Alekseyev V.N. Kolichestvenny analiz: Uchebn. M.: Ximiya, 1972, 504 s.
21. Kruckovskaya Ye.L. Kislotno-osnovnoye ravnovesiye v vodnx rastvorax. Tashkent. Izd-vo TashGU. 1980
22. Kruckovskaya Ye.L. Kislotno-osnovnoye ravnovesiye v vodnx rastvorax. Tashkent. Izd-vo TashGU. 1980
23. Turabov N.T., Ibraimov Ch.I., Babayev N.B., Umbarov I.O. Fizik-kimyoviy analiz metodlari. O'quv qo'l. Termiz, 1999
24. Kreshkov A.P. Osnov analiticheskoy ximii. V 3-x tomax. M.: «Ximiya», 1977
25. Skug D., Uest D. Osnov analiticheskoy ximii. V 2-x tomax M.: «Mir», 1979
26. Frits Dj., Shenk G. Kolichestvenny analiz. M.: «Mir», 1978

### **Noorganik kimyo Asosiy**

1. Parpiyev N.A., Raximov H.R., Muftaxov A.G. Anorganik kimyo (nazariy asoslari).- Toshkent, «O'zbekiston», 2000.-479 b.
2. N.S.Axmetov. Obshaia i neorganicheskaya ximiya. Uchebnik dlya Vuzov 4-ye izd., Moskva, «Vsshaya shkola», 2002. 743 s.
3. Ugay Ya.A. Obshaia i neorganicheskaya ximiya.- Moskva: «Vsshaya shkola», 2002. 527 s.
4. Parpiyev N.A., Muftaxov A.G., Raximov X.R. Anorganik kimyo.-Toshkent: «O'zbekiston» 2003. 504 b.
5. Parpiyev N.A., Reshetnikova R.V., Xodjayev O.F., Hamidov X.A., Kadirova Sh.A. Noorganik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari – Toshkent 2005y 195 b.
6. Parpiyev N.A., Reshetnikova R.V., Xodjayev O.F., Hamidov X.A., Kadirova Sh.A. Laboratorny praktikum po neorganicheskoy ximii. – Tashkent, "Universitet", 2008 – 247 s.

### **Fizikaviy kimyo Asosiy:**

1. Usmonov X.U., Rustamov X.R., Raximov X.R. Fizik ximiya. Toshkent: “O’qituvchi”, 1974.
2. Stromberg A.G., Semchenko D.P. Fizicheskaya ximiya. M. “Ximiya”: 2002.
3. Damaskin B.B., Petriy O.A. Elektroximiya: Ucheb.posobiye M: «Vsshaya shkola», 1978. 296 s.
4. Statistik termodinamika: O’quv qo’llanma. Tuzuvchi B.U.Sagdullayev, Toshkent, 1990.
5. Mišyenko K.P. i dr. Prakticheskiye rabot po fizicheskoy ximii. L: GXI. 1982: Fizik kamyodan amaliy mag’ulotlar. Toshkent: “O’qituvchi”, 1998. (Akbarov X.I., Tillayev R.S. tarjimasi).
6. Akbarov X.I. Fizik kamyodan amaliy mashg’ulotlar. Toshkent, 1991
7. Akbarov X.I., Tillayev R.S. “Fizikaviy kamyodan amaliy mashg’ulotlar”, Toshkent; O’zMU, 2006, 43 b.
8. Akbarov X.I. “Fizikaviy kimyo”, Toshkent: O’zMU, 2006, 66 b.

#### **Qo’shimcha adabiyotlar**

9. Fizicheskaya ximiya. Pod.red. P.V. Nikolskogo M.: “Ximiya”. 1988.
10. Emanuel N.M., Knore D.G. Kurs ximicheskoy kinetiki. M.: “Vsshaya shkola”, 1984.
11. Smirnova Ye.A. Kurs statisticheskoy termodinamiki v fizicheskoy ximii: Ucheb.posobiye 2-ye izd. M: «Vsshaya shkola», 1982. 456 s.
12. Zaxarevskiy M.S. Kinetika i kataliz. LGU, 1968.
13. Vorobyeva N.K. i dr. Praktikum po fizicheskoy ximii. 1989.
14. Gorbachev S.V. Praktikum po fizicheskoy ximii. 1974.
15. Kudryashev I.B., Karetnikov G.S. Sbornik primerov i zadach po fizicheskoy ximii. 1991.
16. [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)
17. <http://www.uralti.ru>.
18. <http://www.fizchim.ru>.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING  
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARIغا KIRISH SINOVLARI  
UCHUN MAXSUS FANLARDAN ABITURIYENTLARNING  
BILIMLARINI BAHOLASH MEZONI**

<b>Sinov topshirish shakli</b>	TEST - kompyuterda
<b>Test yechish uchun ajratilgan vaqt</b>	120 daqiqa
<b>Test savollari soni</b>	50

<b>Har bir to`g`ri javob uchun ball</b>	2
<b>Maksimal ball</b>	100
<b>O`tish bali</b>	55

